SAMARQAND VILOYATI AHOLISI: MILLIY TARKIB VA TOLERANTLIK (XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida)

Xolxujayeva Yulduz Uralboyevna, SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali tadqiqotchisi
e-mail: Xolxujayeva91@mail.ru

Annotatsiya. Markaziy Osiyo tarixiy taraqqiyot bosqichlarida Sharq va G‘arb mamlakatlarining o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarida ko‘prik vazifasini o‘tagan va ushbu mintaqa xalqlarining umumbashariy aloqalarida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston turli davrlarda boshqa mintaqalardan ko‘chib kelganlarning e’tiborini o‘ziga tortgan. Buning natijasi o‘laroq, uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar davomida O‘zbekiston aholisining xilma-xil etnik tarkibi shakllandi. Mustamlaka sharoitda Turkistonda vujudga kelgan ko‘pmillatlilikning mohiyati, bag‘rikenglik masalalarini tadqiq etish O‘zbekistonning mustamlaka davr tarixini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘lkadagi turli xalqlarning o‘zaro munosabatlarini yoritish hozirgi davrda O‘zbekiston xalqini boshqa xalqlar bilan do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston o‘lkasi, tarixiy jarayonlar, Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati, Turkiston viloyati, O‘zbekiston aholisining xilma-xil etnik tarkibi, o‘troq va ko‘chmanchi aholi, xorij fuqarolarining joylashuvi, savdogarlar, sanoatchilar, kapitalistlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

НАСЕЛЕНИЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ СОСТАВ И ТОЛЕРАНТНОСТЬ (в конце XIX – начале XX веков)

Аннотация. На этапах исторического развития Центральная Азия служила мостом во взаимныхполитических, экономических и культурныхсвязях стран Востока и Запада, занимает особое место в мировых отношениях народов этого региона. Узбекистан в разное время привлекал внимание выходцев из других регионов. В результате в ходе длительных исторических процессов сформировался пестрый этнический состав населения Узбекистана. Исследование сути проблем полиэтничности и толерантности, возникших в Туркестане в колониальных условиях, служит наполнению новой информацией истории колониального периода Узбекистана. В то же время освещение взаимоотношений разных народов страны имеет большое значение в укреплении дружеских отношений народа Узбекистана с другими народами.

Ключевые слова: Земля Туркестанская, исторические процессы, колониальная политика Российской империи, пестрый этнический состав

населения Туркестанской области, Узбекистана, оседлое и кочевое население, размещение иностранных граждан, купцов, промышленников, капиталистов, общественно-политические процессы.

THE POPULATION OF THE SAMARKAND REGION: NATIONAL COMPOSITION AND TOLERANCE (in the late XIX – early XX centuries)

Abstract. During the stages of historical development, Central Asia served as a bridge in the mutual political, economic, and cultural relations of Eastern and Western countries, and occupies a special place in the global relations of the peoples of this region. Uzbekistan attracted the attention of immigrants from other regions at different times. As a result, a diverse ethnic composition of the population of Uzbekistan was formed during long historical processes. Researching the nature of the multi-ethnicity and tolerance issues that arose in Turkestan under the colonial conditions serves to fill the history of the colonial period of Uzbekistan with new information. At the same time, highlighting the mutual relations of different peoples in the country is important in strengthening the friendly relations of the people of Uzbekistan with other peoples.

Keywords: The land of Turkestan, historical processes, the colonial policy of the Russian Empire, the diverse ethnic composition of the population of Turkestan region, Uzbekistan, settled and nomadic population, the location of foreign citizens, merchants, industrialists, capitalists, socio-political processes.

Kirish. Markaziy Osiyo tarixiy taraqqiyot bosqichlarida Sharq va G‘arb mamlakatlarining o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarida ko‘prik vazifasini o‘tagan va ushbu mintaqa xalqlarining umumbashariy aloqalarida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, qulay geografik xududda joylashgan va serhosil tabiiy iqlim sharoitiga ega bo‘lgan O‘zbekiston turli davrlarda boshqa mintaqalardan ko‘chib kelganlarning e’tiborini o‘ziga tortgan . Buning natijasi o‘laroq, uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar davomida O‘zbekiston aholisining xilma-xil etnik tarkibi shakllandi.

Mustamlaka sharoitda Turkistonda vujudga kelgan ko‘pmillatlilikning mohiyati, bag‘rikenglik masalalarini tadqiq etish O‘zbekistonning mustamlaka davr tarixini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘lkadagi turli xalqlarning o‘zaro munosabatlarini yoritish hozirgi davrda O‘zbekiston xalqini boshqa xalqlar bilan do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati natijasi Turkiston o‘lkasida sun’iy ko‘pmillatlilikni shakllanishiga turtki berdi. Xususan, bosqichlar bilan amalga oshirilgan ko‘chirish siyosati, shuningdek, migratsiya va boshqa omillar o‘lka aholisi milliy tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu holatga Turkistonda 1897-yil kuzida o‘tkazilgan birinchi umumiy aholi ro‘yxati ma’lumotlari aniqlik kiritadi. Shunga ko‘ra, o‘lkada yashovchi 5,3 mln. aholidan o‘zbeklar 35,77 %, qozoqlar va qirg‘izlar 44,36 %, tojiklar 6,73 %, turkmanlar 4,98

%, ruslar 3,75 %, qoraqalpoqlar 2,26 % va boshqa millatlar 2,15 % ni tashkil etgan. Turkistonga chetdan kelib istiqomat qilayotganlar orasida Volga bo‘yidan kelganlar 9236 kishi, Rossiyaning Markaziy Yevropa qismidan kelganlar 7385 kishi, Uraldan kelganlar 7360 kishi, imperiya janubidan kelganlar esa 7068 nafar bo‘lgan [1, str. 82-89]. Xullas, hozirgi O‘zbekiston hududida tub joy aholidan tashqari boshqa xalqlar vakillarining guruhlari ham yashar edi. Ularning bir qismi o‘lkaga qadim zamonlarda kelib qolgan arablar, eroniylar, lo‘lilar, afg‘onlar bo‘lsa, boshqalari
XX asr boshlarida ko‘chib kelgan etnoslarning vakillari edi.

O‘lkada etnik xilma-xillik holati ayniqsa, aholi zich joylashgan Farg‘ona, Zarafshon singari vohalarda yorqin kuzatilgan. Jumladan, Samarqand viloyati aholisi bu davrda milliy va etnik xilma-xillik, xalqlarning integratsiyalashuvi alomatlari bo‘yicha yetakchi o‘rinda turgan. Samarqand viloyati misolida aholi milliy tarkibi va tolerantlik masalalari tahlili o‘lkadagi shu jarayonlarga ma’lum darajada aniqlik kiritadi.

1872-yilda Zarafshon okrugida jami aholi soni 280.950 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1886-yildan so‘ng okrugning viloyatga aylantirilishi va unga boshqa tumanlarning qo‘shilishi natijasida 1897-yilga kelib, viloyat aholisi 860.021 ming nafardan iborat bo‘lgan [2, str. 2]. Samarqand viloyati aholisining asosini o‘zbeklar, tojiklar so‘ngra yaxudiylar, arablar, forslar, lo‘lilar, afg‘onlar, qipchoqlar, hindlar tashkil etgan bo‘lsa, keyinchalik Rossiyaning Yevropa qismi, Volgabo‘yi, Sibir va Kavkaz hamda boshqa mintaqadagi migrantlarning ko‘chirib keltirilishi bilan aholi etnik tarkibi turlicha bo‘lib bordi. Viloyatdagi tub xalqlarning umumiy soni 1889-yili – 707.674 ming, 1897-yili – 840.077 ming, 1914-yilda – 904.960 ming kishi bo‘lgan. Keyingi o‘rinda ukrain va beloruslarni o‘z ichiga olgan rus aholisining umumiy soni 1889-yili – 10169 ming, 1897-yili – 14.006 ming, va 1910 – 22.929 mingni tashkil etgan [3. – S. 11].

1897-yilga kelib viloyatda 20 dan ziyod millat vakillari istiqomat qilgan bo‘lib, bu tarkib imperiyaning milliy hududlaridan kirib kelgan boshqird, armani, gruzin, litvalik va latishlar, polyak, moldavan, fransuz, italyan, nemis hamda sharq mamlakatlari vakillari hisobiga ko‘paygan. Shuni ta’kidlash lozimki, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi o‘lkani bosib olib mustamlakachilik siyosatini yurita boshlashi sababli, sharqiy slavyan diasporasi (ruslar, ukrainlar, beloruslar) faol tarzda tashkil topa boshladi. Bu holatga aholini ko‘chirish siyosati bosqichlarining ta’siri sezilarli bo‘ldi.

Aholi etnik tarkibining xilma-xilligi diniy manzaraning ham turlicha bo‘lishiga olib keldi. Misol uchun, 1900-yilda viloyat aholisi diniy e’tiqodi bo‘yicha musulmonlar, pravoslav, yahudiy, armangrigoryan, katolik, protestant, butparast singarilardan iborat bo‘lgan [4.5. № 5].

Viloyat markazi hisoblangan Samarqand shahri asosiy siyosiy-ma’muriy hamda iqtisodiy markaz bo‘lganligi uchun bu yerga ko‘chib keluvchilar soni yildan-yilga ortib bordi. Bu holat ayniqsa, shaharning rus aholisi uchun tashkil etilgan «Yangi shahar» qismida yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar 1870-yilda bu qismda aholi soni

30-40 ming oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, 1897 yilda 55.128 ming nafarni va 1914-yilda esa 97.530 ming kishini tashkil etgan [6.S.2; 7.R.230]. «Yangi shahar»lardan tashqari, ko‘chirib keltirilgan Rossiya fuqarolari uchun maxsus posyolkalar ham tashkil etilgan. 1886 yilda viloyatga rus aholisini ko‘chirib keltirish boshlangan edi. 1886 yilda posyolkalar soni 4 ta bo‘lgan, 1898 yilda 9 ta va 1910 yilda esa ularning soni 11taga yetadi[8.S.32; 9.S.5]. Biroq o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, tub joyli mahalliy aholiga ko‘chirilganlar posyolkasi va hatto shaharlarning “rus qism”ida joylashish ta’qiqlangan edi.

Samarqand viloyatida aholi yashash tarziga ko‘ra o‘troq, yarim o‘troq va ko‘chmanchilik yashash holatiga ega bo‘lgan. Viloyatning qishloq joylarida aholining 84,26 % va shaharlarda esa 15,733 % yashagan [10.C.24.]. Ko‘chmanchilar viloyatning asosan, Xo‘jand, Jizzax va qisman Kattaqo‘rg‘on uyezdida istiqomat qilganlar. Ko‘chmanchilarning asosiy qismini qozoqlar tashkil etgan bo‘lib, viloyatda 1872 yilda ular butun aholining 0,26 % ini, 1888 yilda 2.85 %ni, 1911 yilga kelib esa, 8.15 %ini tashkil etgan [11.C.8.12.v.7]. Bu ma’lumotlarda raqamlar sonining ortib borishi, ya’ni ko‘chmanchi aholi sonining ko‘payib borishidan darak bersa-da, XX asr boshlariga kelib ko‘chmanchi aholi o‘rtasida yarim o‘troqlashish yoki o‘troqlashish holati kuchayib borgan.

Viloyatning shahar va qishloqlarda istiqomat qilgan turli milliy guruhlarning shug‘ullangan mashg‘ulot turlari ham bir-biridan farq qilgan. Shaharlarda asosiy ma’muriy boshqaruv markazi, savdo, hunarmandchilik, sanoat, ishlab chiqarish va turli xizmat ko‘rsatish ob’yektlari mavjud bo‘lganligi bois, bu yerda turli kasbdagi xizmatchilar, amaldorlar, savdogarlar, hunarmadlar, diniy vakillar va qisman dehqonlar yashagan. Qishloqlarda yashagan aholi tabaqalari esa, asosan, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari hisoblangan dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, shuningdek, qisman hunarmandchilik, savdo va boshqa kasblar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Bu davrda ijtimoiy qatlamlar tarkibi tahlil etilar ekan, an’anaviy jamiyat uchun mutloqo yot bo‘lgan yangi tarkib, ya’ni aynan Rossiya jamiyatiga xos tabaqalanishni ifoda etgan: naslli va shaxsiy dvoryanlar va fuqorolar, savdogar va мещанlar, harbiylar, rus dehqonlari va kazaklar, xorij fuqorolaridan iborat tarkib qaror topganligini kuzatish mumkin. O‘lkaning harbiy boshqaruvga asoslangani maxsus harbiylar guruhini shakllantirdi va ularning oilalari bilan joylashuviga imkon yaratdi. Ko‘chirish siyosati natijasi o‘laroq, rus dehqonlari soni o‘sib bordi shuningdek, viloyatga xorij fuqarolarining joylashuvi ortib borganligini ko‘rish mumkin.

Qayd etish lozimki, ayrim rus tadqiqotchilari imperiyaning O‘rta Osiyoda olib borilgan milliy siyosati zamirida mahalliy tartiblarni saqlash, mahalliy elitaning muayyan mustaqilligini qoldirish bilan bog‘liq ijobiy jihatlarini ko‘rsatishadi. Shuningdek, imperiya xalqlari huquqlarini kamsitish milliy yoki konfessional jihatdan emas, balki siyosiy sodiqlik, ya’ni “rus davlatchiligi g‘oyasi”ga xizmat qilish darajasiga qarab amal qilinganligi, xristian bo‘lmaganlarning ham huquq va imtiyozlari bo‘lganligini asoslashga harakat qilishadi [13.S.121]. Biroq bu fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki 1897-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari tahlili rus ma’muriyati tomonidan ilgarigi (xonliklar davridagi) an’anaviy jamiyat

ijtimoiy tuzilmasi e’tirof etilmaganligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, ushbu ro‘yxatda faqat rus fuqarolari tabaqalarga bo‘lingan holda, mahalliy aholi faqat «inorodsы» («yot kishilar») degan umumiy bir ijtimoiy toifaga ajratilgan edi.Imperiyaning o‘lkada olib borgan mustamlaka siyosatiga qaramasdan, o‘lka tub joy xalqlari o‘z bag‘rikengligi, ochiq ko‘ngilliligi bilan xududga kelgan turli etnoslar bilan hamjihat munosabatlar olib borganlar. Bu holatga ko‘petnosli Samarqand viloyati yorqin misol bo‘la oladi. Turkiston general-gubernatorligining yirik siyosiy-iqtisodiy markazlaridan biri hisoblangan Samarqandga XIX asr oxirida Rossiyadan kapitalistik munosabatlari jadal sur’atda kirib keladi. Viloyatga kirib kelgan kapitalistik munosabatlar viloyatdan ko‘ra, metropoliyaning iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lsa-da, viloyat muayyan darajada ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalarni boshidan kechirdi. Jumladan, yangi tovar-pul munosabatlari, savdo-sanoat, zavod va temir yo‘llarning qurilishi, pochta va telegraf aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi, boshqa tomondan esa aholining turmush madaniyati, dunyoqarashi va boshqa sohalarda yangi jihatlarning qaror topishi shular jumlasidan sanaladi.

Bu transformatsiyalarning yana bir ahamiyati - tub joy aholi bilan o‘lkaga kirib kelgan rus va xorijlik xalqlar o‘rtasida yangi do‘stona munosabatlar rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu munosabatlar, bir tomondan, savdo, sanoat, ishlab chiqarish kabi sohalardagi hamjihatlikda namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan bu xalqlarning turmush-tarzi, kasb-kori va mashg‘ulotlarida integratsiyalashuvga olib keldi. Hududga ko‘chib kelgan rus va rusiyzabon aholi mahalliy aholining qishloq xo‘jaligi sohasida orttirilgan tajribalari bilan tanishgan bo‘lsa, yangicha iqtisodiy munosabatlarga jalb etilgan mahalliy aholi vakillari ham ulardan yangi kasb va mashg‘ulotlarni o‘zlashtirib bordilar. Natijada bu ular o‘rtasida o‘zaro foyda keltirgan tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik munosabatlarni o‘rnatdi. Tadqiqotchilar qayd etganidek, do‘stlik uchun birinchi qadamni ko‘p hollarda mahalliy millat kishilari qo‘yganlar. Bu xalqlar o‘rtasida jiddiy ziddiyatlar deyarli kam bo‘lgan, bu holat faqat ayrim hollarda xususiy shaxslar o‘rtasida ro‘y bergan [14.S.144].

Xalqlar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan hamjihat munosabatlarni iqtisodiy aloqalardan boshlab tahlil etadigan bo‘lsak, Rossiya imperiyasining o‘lkada savdo va sanoat sohasidagi siyosatidan hukmron doiralardan tashqari, tobora rivojlanib, kuchga kirib borayotgan rus burjuaziyasi ham manfaatdor bo‘lgan. Shu boisdan, o‘lkada rus va xorij savdogarlari, sanoatchilar, kapitalistlar uchun qulay sharoit yaratib berishga harakat qilingan va ular har jihatdan qo‘llab-quvvatlangan. Chunki o‘lkaning xom ashyo bazasi va arzon ishchi kuchiga ega ekanligi imperiyani daromadni har tomondan ko‘paytirishga undagan edi.

Bank muassasalarining ochilishi Rossiya savdo va sanoat kapitalining kirib kelishini kuchaytirish bilan birgalikda, turli rus, xorij savdo va sanoat firmalariga qarashli bo‘lim va idoralar tashkil topib bordi. Jumladan, Samarqandda Xludov, I. Pervushin, Mindor, «Katta Yaroslavl manufakturasi», «Aka-uka Vadyayevlar», «Yu.Davidov savdo uyi», «Aka-uka Shlossberglar», «I.K.Poznanskiy» kabi savdo uylari, firmalar, shirkat va aksionerlik jamiyalari tashkil etildi. Bunday firma, jamiyatlarda yirik rus ishbilarmonlari qatorida D.Filatov, N. Ivanov, aka-uka Xludovlar, I.Pervushin va boshqalar faol harakat olib borgan. Ta’kidlash lozim,

Rossiyaning bank va savdo kapitalining rivojlanishida mahalliy savdo kapitali va daromadga intilgan milliy mulkdorlarning o‘rni muhim bo‘lgan. Mulkdorlar qatlamining asosini sanoatchilar, savdogarlar, yirik yer egalari, hunarmandlar tashkil etib, shular orasida samarqandlik vakillardan M. Fuzailov, M. Adinboyev, A. Fozilxojinov, T. Akilov, M. Nosirboyev, R. Fuzailov va boshqalar nafaqat rus va xorij sarmoyadorlari orasida vositachilik qilgan, balki o‘zlari mustaqil faoliyat olib borganlar [15.B.107].

Rus ishbilarmonlaridan tashqari, viloyatda Rossiya kapitalining rivojlanishida xorij kapitalining o‘rni ham muhim bo‘lgan. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o‘lkadagi iqtisodiy vaziyato‘zgarishi tufayli,tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchishaxslar va o‘z moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida daromad ko‘rishga intilgan shaxslar Turkistonga ko‘plab kirib kelaboshladilar. Xuddi shunday bu davrda Samarqandga xorijiy Sharq va G‘arb mamlakatlari tadbirkorlari oqib kela boshladi. Jumladan, katta guruh - italiyaliklar, greklar, nemislar va boshqalar shular jumlasidan bo‘lib, hukumat tomonidan ularga Rossiya sanoat korxonalari ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni qayta ishlab chiqaruvchi zavod-fabrikalar ochishga, savdo shahobchalari tashkil qilishga ruxsat berildi. Masalan, bular qatorida prussiyalik Minder va Yugovichlar, grek Grigoriy Kapo, italiyalik Nikola Kardini va J. Tonilar bor edi. Nemis bo‘lgan aka-uka Vogaular, baron Knoplar asosan, O‘rta Osiyodagi paxta bozorlarini egallashda ishtirok etganlar [16. S. 68].

Bu davrda yangi iste’mol buyumlariga ehtiyojlarning paydo bo‘lishi natijasida mahalliy aholi rus aholisidan yangi kasbiy mashg‘ulot sohalarini o‘zlashtira bordilar. Shular jumlasiga, yumshoq baxmalsimon charm tayyorlash, soat tuzatish, mebel yasash va mebel qoplash, rasm solish, fotosuratchilik, suvoqchilik va boshqalar kirgan.

O‘lkada sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, temir yo‘llar, zavodlarning ishga tushirilishi natijasida ishchilar qatlami shakllangan edi. Rus va mahalliy ishchilarning o‘zaro ijtimoiy-siyosiy harakatlardagi faolligi Rossiyadagi inqiloblar bilan aloqadorlikda rivojlandi. Ayniqsa, 1905-1907 yillardagi birinchi rus inqilobi o‘lkada demokratik harakatlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. E’tiborli tomoni, shunday harakatlarda rus ishchi, xizmatchilari qatorida mahalliy o‘zbek, tojik va boshqa ishchilar ham faol qatnashdilar. Rus va mahalliy ishchilar bu harakatlarda milliy, ijtimoiy kelib chiqishdan qat’iy nazar, barcha ishchi va xizmatchilarning haq-huquqlarini himoya qilib chiqqanlar.

Xulosa. Mavzu bo‘yicha qisqacha xulosa qilganda, mustamlaka sharoitda Turkiston tub joy aholisining bag‘rikengligi va ochiq ko‘ngilliligi bu yerga kelgan xalqlarning o‘rnashib qolishlarida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar davomida O‘zbekiston aholisining xilma-xil etnik tarkibi shakllandi, natijada vujudga kelgan yirik elatlar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida millatlarni shakllantirish yo‘liga o‘tdilar, shuningdek migratsiya asosida turli etnik guruhlar ham vujudga keldi. Samarqand esa o‘lka xalqlari o‘rtasida kechgan tolerantlik munosabatlarida yorqin namuna bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ата-мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. – Т.: Университет, 2004. – С. 82-89.

2. Первая Всеобщая перепись население Российской империи.1897 г. Самаркандская область. – СПб., 1905. – С. 2.

3. Первая Всеобщая перепись населения. – С. 2-11.

4. Обзор Самаркандской области за 1889г. – СПб., 1910.

5. Samarqand VDA, Nodir hujjatlar jamg‘armasi, 3-ish. № 5.

6. Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897. Самаркандская область. – СПб., 1905.

7. Curzon George N. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian question. Frank Cass & Co LTD, 1967.

8. Обзор Самаркандской области за 1900 г. – Самарканд, 1901.

9. Справочная книжка Самаркандской области на 1902 г. – Самарканд, 1903.

10. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 4. – СПб., 1876. – С. 24.

11. Сборник материалов для статистики Самаркандской области за 1887-1888 гг. – Самарканд, 1890.

12. O‘zR MDA, I-18-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 6972-yig‘ma jild, 7-varaq.

13. Миронов Б.Н. Российская империя: от традиции к модерну. Том 1. – СПб.: ДМИТРИЙ БУЛАНИН, 2014.

14. Брусина О.И. Славяне в Средней Азии. Этнические и социальные процессы. Конец XIX – начало XX века. – М., 2001.

15. Normurodova G.B. “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy stratifikatsiyasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2013. –170 b.

16. Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX – начале XX в.в.) – Т., 1987.